

**“Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashuvchi front-ofislarini tashkil etish” loyihasi
to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom yoshlar orasida yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olish, huquqiy savodxonlikni oshirish va xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirish maqsadida har bir tumanda tashkil etiladigan yoshlar “front-ofis”larining tashkil etilishi, faoliyati va muvofiqlashtirish tartibini belgilaydi.

2. Loyihani yuqori saviyada tashkil etish va amalga oshirish uchun Yoshlar ishlari agentligi (yetakchi tashkilot), Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda tegishli nodavlat notijorat tashkilotlari mas’ul etib belgilanadi.

3. Loyihada 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan (30 yoshdagilar ham kiradi) quyidagi loyihalar ishtirokchilariga ustunlik beriladi:

“Jasorat maktabi” o‘quv yig‘inini bitirganlar;

“Yoshlar va qonun” tanlovida ishtirok etganlar;

“Shijoat va g‘ayrat” musobaqasida qatnashganlar;

“Harbiy vatanparvarlik” (spartakiada) tanlovlarida qatnashganlar;

“Besh tashabbus” musobaqasi g‘oliblari, universitet talabalari, faol yoshlar va maktab o‘quvchilari.

4. Respublika ishchi guruhi loyihani umumiy boshqarish, Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, metodik materiallar hamda yagona ish yuritish standartlarini tasdiqlash vakolatiga ega.

II. Loyihaning maqsad va vazifalari

5. Loyihaning maqsadi — yoshlar orasida giyohvandlikning zarari to‘g‘risidagi bilim va xabardorlikni oshirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, giyohvandlikka qarshi profilaktika ishlarida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash.

6. Loyihaning asosiy vazifalari:

har bir tumanda front-ofislar tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

mamlakatimizda aholi, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy savodxonlik barqaror muhit shakllantirilishiga erishish;

yoshlarimizda respublikamizda tasdiqlanayotgan qonun va qonun osti hujjatlariga nisbatan hurmat va rioya etish hissini shakllantirish;

yoshlarni siyosiy-huquqiy islohotlar jarayonlarida faolligini oshirilishiga erishish;

yoshlarda har qanday islohotlarga nisbatan daxldorlik kayfiyatini shakllantirish orqali demokratik davlat barpo etishda samarali yosh avlod qatlami o‘rni va rolini oshirilishiga erishish.

targ‘ibot-tashviqot tadbirlari (ma’ruzalar, o‘quv-seminarlar, ijtimoiy aksiyalar, devoriy axborot va badiiy rasmlar)ni tashkil etish;

giyohvand moddalar savdosi va targ‘ibotiga oid shubhali holatlar bo‘yicha qonuniy tartibda ma’lumotlarni to‘plash hamda vakolatli idoralarga yetkazish;

yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, tashabbuskorlik va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish.

III. Loyihani tashkil etish va amalga oshirish tartibi

7. Loyihani tashkil etish va uni o'tkazish ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.

Ishchi guruh vazifalari:

- tashkiliy qarorlar qabul qiladi;
- loyihaning tartib-qoidalar haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;
- barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratadi;
- oshkoralik va shaffoflikni ta'minlaydi;
- loyiha ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi.
- yagona metodik ko'rsatmalarni, shakl va jadvallarni tasdiqlaydi
- loyiha natijalarini umumlashtiradi

8. Ishtirokchilar front-ofislarga onlayn/oflayn ariza orqali qabul qilinadi. Tanlov (sarlash)da yoshi, motivatsiyasi, uyushqoqligi va jamoatchilik bilan ishlash ko'nikmalari hisobga olinadi.

9. Har bir tumanda 10 nafardan iborat front-ofis shakllantiriladi. Tuzilma:

-**Sardor** (1 kishi) — vazifalarni taqsimlaydi, nazorat qiladi, oylik hisobot tayyorlaydi;

-**Sardor** yordamchilari (2 kishi) — belgilangan vazifalar ijrosini muvofiqlashtiradi;

-**Mentor** (1 kishi) — ish uslublari bo'yicha yo'l-yo'riq beradi;

-**Real targ'ibotni oldini olish bo'yicha mas'ullar** (2 kishi) — joylarda nomuvofiq e'lon va yozuvlarni aniqlaydi, belgilangan tartibda bartaraf etish choralari yuzasidan ma'lumot beradi;

-**Virtual targ'ibotni oldini olish bo'yicha mas'ullar** (2 kishi) — internet makonidagi noqonuniy targ'ibot holatlarini monitoring qiladi va hujjatlashtirib sardorga yetkazadi.

11. Front-ofislarga a'zolariga loyiha ramzi tushirilgan maxsus forma, guvohnoma beriladi, o'quv-seminar yakunlanganda sertifikat topshiriladi.

IV. Faoliyat yo'nalishlari, shartlar va baholash mezonlari

Front-ofislar faoliyati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

a) **Axborot-targ'ibot va ta'lim:** ta'lim muassasalari va mahallalarda ma'ruza, seminar, ochiq darslar;

b) **Profilaktika va jamoatchilik nazorati:** shubhali holatlarni foto/video va tezkor yozuvlar bilan hujjatlashtirib, vakolatli organlarga rasmiy tartibda yetkazish, xavfsiz yo'laklar, "maktab-mahalla-front-ofis" tezkor aloqasini yo'lga qo'yish.

v) **Media va raqamli gigiena:** SMM orqali ijtimoiy tarmoqlarda tushuntirish ishlari, infokampaniyalar, virtual makondagi noqonuniy targ'ibotni monitoring qilish va ma'lumot berish.

g) **Hamkorlik va tadbirlar:** sog'liqni saqlash, ta'lim, huquq-tartibot idoralari va NNTlar bilan qo'shma aksiyalar, fleshmoblar, marafonlar.

Samaradorlikni baholash mezonlari (ko'rsatkichlar):
o'tkazilgan tadbirlar soni va qamrovi;

profilaktik materiallar (yozuvlar, videoroliklar, maktublar) soni aniqlanib, vakolatli idoralarga yuborilgan ma'ruza-xabarlar soni va ular bo'yicha ko'rilgan choralari;

ta'lim muassasalari va mahallalarda xavfsiz muhit ko'rsatkichlarining yaxshilanishi;

g) Hamkorlik va tadbirlar:

- sog'liqni saqlash, ta'lim, huquq-tartibot idoralari va NNTlar bilan qo'shma aksiyalar, - fleshmoblar, marafonlar.
- samaradorlikni baholash mezonlari (ko'rsatkichlar):
- o'tkazilgan tadbirlar soni va qamrovi;
- profilaktik materiallar (yozuvlar, videoroliklar, maktublar) soni aniqlanib, vakolatli idoralarga yuborilgan ma'ruza-xabarlar soni va ular bo'yicha ko'rilgan choralar;
- ta'lim muassasalari va mahallalarda xavfsiz muhit ko'rsatkichlarining yaxshilanishi;
- **Hisobotlar oylik/kvartallik tartibda sardor tomonidan tuman (shahar) ishchi guruhiga taqdim etiladi.**

V. Rag'batlantirish

Front-ofis a'zolariga loyiha davomida guvohnoma, maxsus forma hamda o'quv-seminar yakunlanganda sertifikat beriladi.

Eng faol front-ofislar va ishtirokchilar hududiy hamda respublika darajasida faxriy yorliqlar, diplomlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Loyihada alohida yutuq ko'rsatgan yoshlar keyingi ijtimoiy loyihalarga ustuvor tartibda jalb etiladi.

IV. Yakuniy qoidalar

Loyihani moliyalashtirish mahalliy va hududiy hokimliklar, Yoshlar ishlari agentligi mablag'lari hamda qonunchilikka muvofiq homiylik asosida amalga oshiriladi.

Davlat va nodavlat tashkilotlari loyihada hamkorlik qilishi mumkin. Loyiha doirasida shakllantirilgan barcha hujjatlar (arizalar, ro'yxatlar, hisobotlar) tuman (shahar) bo'limlarida, hududiy darajadagi hujjatlar hududiy boshqarmalarda, umumiy respublika hujjatlari agentlikning markaziy apparatida saqlanadi.

Mazkur Nizom talablariga rioya etilishi majburiy bo'lib, loyihada ishtirok etish ixtiyoriy va bepul hisoblanadi. Respublika ishchi guruhining qarorlari yakuniy hisoblanadi.